

MAKTABDA O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILAR BILAN OLIB BORILAYOTGAN PSIXOLOGIK ISHLAR KO‘LAMI

Islomova Gulrux Bahodirovna

Buxoro viloyati Olot tumani 27-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabda o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan psixologik ishlarning mazmuni, yo‘nalishlari va samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda individual va guruhiy yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘smir, psixologik ishlar, maktab psixologi, emotsional holat, profilaktika, maslahat, moslashuv, shaxs rivojlanishi.

KIRISH

O‘smirlik davrida o‘quvchilarda emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, ijtimoiy munosabatlarning kuchayishi va o‘zini anglash jarayoni faol kechadi. Shu sababli maktab psixologi tomonidan olib boriladigan psixologik ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabda o‘smirlar bilan olib boriladigan psixologik ishlar keng ko‘lamli bo‘lib, u bir nechta yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi yo‘nalish — diagnostik ishlar bo‘lib, bunda o‘quvchilarning psixologik holati, qiziqishlari, qobiliyatlari va muammolari aniqlanadi. Ikkinchi yo‘nalish — profilaktik ishlar hisoblanadi. Bu jarayonda o‘smirlar orasida stress, agressiya, zararli odatlar va ijtimoiy muammolarning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

Uchinchi yo‘nalish — korreksion ishlar bo‘lib, bu individual psixologik muammolari mavjud o‘quvchilar bilan maxsus mashg‘ulotlar va maslahatlar o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, psixologik maslahat berish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. O‘smirlar o‘z muammolari bilan psixologga murojaat qilib, ichki kechinmalarini yengillashtiradi va to‘g‘ri yo‘l topishga yordam oladi.

Guruhiy psixologik treninglar o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoaga moslashish va o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Kasbga yo‘naltirish ishlari ham o‘smirlar bilan olib boriladigan psixologik faoliyatning muhim qismidir. Bu orqali o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlari aniqlanib, kelajak kasbini to‘g‘ri tanlashga yordam beriladi. Oila bilan hamkorlik psixologik ishlarning samaradorligini oshiradi. Ota-onalar bilan suhbatlar va maslahatlar o‘smir tarbiyasidagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

O‘smirlik davri «o‘tish davri», »krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan harakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning

xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni "psixik rivojlanishdagi krizis" deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga- kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini "bola"lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamogchidek bo'ladi. Bu davrda o'smirning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir gurux tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar karakterlidir.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga hos harakatlar qila boshlaydi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir gurux tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi taxlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir.

O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda **katta yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish**, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Xo'sh, o'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch - uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni o'smirning psixologik kamolotini ta'minlash, faoliyat turlarini

murakkablashtirish, uning shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish orqali asta-sekin yo'qotish mumkin.

O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi xolatlar bo'ladi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, bu yoshdagi o'smirlar o'ta ta'sirchan, ayniqsa tashqi ta'sirga, tashqi voqealarga beriluvchan bo'ladilar. Ishqiy kitoblar o'qish, shunga o'xshash kinofilmlarni tomosha qilishga juda qiziqadilar. O'zlarining tashqi qiyofalariga ko'prok e'tibor bera boshlaydilar. O'g'il bolalarda soch qo'yish, durustroq kiyinish ishtiyoqi tug'iladi, qizlar esa oynaga ko'prok qaraydigan bo'lib qoladilar. Ular o'zlariga oro berishni, malikalarday go'zal ko'rinishni istaydilar, orasta ko'rinishga urinadilar. Bu tabiiy holdir. Yuqori sinf o'quvchilari o'zlarining ma'naviy xususiyatlari bilan boshqa yoshdagi bolalardan keskin farq qiladilar. Ular ham jinsiy, ham jismoniy, ham aqliy jihatdan yetilgan bo'ladilar. Shu tufayli ular vazmin tabiatli, mulohazali, kattalarga hurmat-ehtirom bilan qaraydilar. Ota-onalar farzandlar bilan muomala qilishda ularning shaxsiy xususiyatlari, yosh davrlari hislatlarini hisobga olgan holda ish tutsalar, oilada O'zaro tushunish, totuvlik, hamjihatlik, umuman yaxshi ma'naviy vaziyat vujudga keladi. Otaning onaga yoki onaning otaga qilgan munosabatlari ham shu vaziyat shart-sharoitlariga mos tushishi kerak. Chunki ota-onaning o'zaro totuv hayot kechirishlari, inoq va barqaror, mustahkam oilaning bosh omilidir.

O'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlari kattalardan ularga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lish lozimligini taqozo qiladi. Kattalar ular faoliyatini nazorat qilishlari, faoliyat motivlarini doimo e'tibordan chiqarib qo'ymasliklari lozim, aks holda o'smir hayotida noxush xususiyatlarning paydo bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun o'smirlik yoshi bola taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

O'smirning jismoniy jihatdan o'sishida jinsiy balog'atga yetish katta rol o'ynaydi, jinsiy balog'atga yetish o'smir organizmi faoliyatida jiddiy o'zgarishlar yasaydi. Jinsiy balog'at natijasida o'smirlarda o'ziga xos psixik holat vujudga keladi. Shuning uchun bu davrda maktab va oilada ta'lim- tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yil- masa, o'smirning yosh fiziologik xususiyatlari xisobga olinmasa, uning xulq atvoridagi salbiy sifatlar ortib borib, bola xarakterining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va keyingi hayoti davomida ham o'zgartirish qiyin bo'lgan chuqur iz qoldirishi mumkin. O'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf rahbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta'sir qilishdan

tashqari o'smirning psixik taraqqiyotiga ham albatta ta'sir qiladi. O'smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan va qandaydir ma'noda ular uchun kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, xislar, kechinmalar, qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish, ma'lum mazmundagi kitoblarga, kinofilmlarga, kattalarning gaplariga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi mutlaqo zarur, tabiiy va me'yoriy holdir.

Jinsiy tarbiyaning muhim vositalaridan biri o'smirlar diqqatini odamlar o'rtasidagi intilish munosabatlar doirasidan boshqa ob'ektlarga ko'chirishdir. Bu o'smirlar diqqatining jinsiy kechinmalar ustida to'rejaishini ozaytiradi. O'smirning hayot kechirish tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta'siri. Kichik yoshdagi o'quvchilardan farqli ravishda o'rta yoshdagi o'quvchilarning hayot kechirish tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Oilada, maktabda va o'quvchilar jamoasida o'smirning mavqei sezilarli darajada o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirlarning oila a'zolari bilan ham yangicha munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi.

O'smir shaxsining takomillashuvi va shakillanishiga turtki bo'lgan omillardan biri o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishlardir. O'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'quv motivlari ustuvor bo'lib boradi, lekin o'quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy xis tuyg'ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan o'smirning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. O'smirga uning ilgari qondirilib kelinayotgan ehtiyoj va xohishlari endi qondirilmaligi, ularning ko'pidan voz kechish lozimligi uqtiriladi. O'smir qiyinchilik bilan bo'lsada, o'zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o'z xulqini o'zgartirib unga moslasha boradi.

Maktabda o'smirning mavqei yanada keskin o'zgaradi. Uni endi bir necha o'qituvchi o'qitadi. O'smir oldida har bir o'qituvchining o'ziga xos metod va usullariga moslashish, ularning talablarini anglab, bilib olish kabi murakkab vazifa turadi. Endi o'smir ko'pgina yangi o'quv fanlarini o'rganib olishi kerak bo'ladi. O'smirning bolalar jamoasiga bo'lgan munosabati ham murakkablashadi. O'smirga o'zining o'qishi, mehnati va xatti- harakatlariga mas'uliyat bilan qarash jamoat topshiriqlarini aniq bajarish, bilim va ko'nikmalarni egallashda reja bo'yicha sistemali ravishda ko'tarila borish kabi avvalgidan ko'ra jiddiyroq talab quyiladi.

O'smirning oiladagi mavqeining o'zgarishi, maktabda o'qishning yangi sharoiti, bolalarning ijtimoiy hayotida murakkab munosabatlar o'rta yoshdagi o'quvchilar oldiga ko'pgina yangi talablar qo'yadi va ularning butun psixik hayotida yangi qiyinchiliklar tug'diradi. Avval mustahkam o'rnatilgan qolgan ko'nikma va malakalar yangi hayot kechirish tarziga ko'p jihatdan mos kelavermaydi. Shuning uchun

o‘smirlarning psixik jihatdan normal hayot kechirishi va o‘shini ta’minlash uchun o‘smirlik yoshining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari e’tiborga olingan ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar qo‘llanilishi zarur. O‘smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba’zi olimlar « krizislar » « tanazzullar » davri ham deb ataydilar. Sababi o‘smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro‘y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o‘zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomon-dan, o‘zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabda o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan olib boriladigan psixologik ishlar kompleks yondashuvni talab qiladi. Diagnostika, profilaktika, korreksiya va maslahat ishlari orqali o‘smirlarning sog‘lom psixologik rivojlanishini ta’minlash mumkin.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
2. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1976
3. Karimova V. Va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T., “Sharq”, 2000
4. Ahloq-odobga doir hadis namunalari.-T., 1990
5. Ziyonet